

**UDK:913**

**Abdimo'minov Tog'ynazar Abdinaxat o'g'li**

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Xoliyorov Hasanbek O'rol o'g'li**

*Termiz davlat pedagogika institut talabasi*

## **QIZIRIQ TUMANIGA IJTIMOIY-IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIF**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qiziriq tumaniga ijtimoiy-iqtisodiy geografik tavsif berilgan bo'lib, tumanning aholisi va xo'jaligi tavsifi, migratsiya hamda tumanning sanoat salohiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi, milliy tarkibi, migratsiya, aholining tabiiy o'sishi, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, sanoat, ijtimoiy sohalar.

**Абдимоминов Тогойназар Абдинахат оглы**

*Преподаватель Терmezского государственного педагогического института*

**Халиев Хасанбек Орол оглы**

*Студентка Термизского государственного педагогического института*

## **СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ КЫЗЫЛОРДИНСКОГО РАЙОНА**

**Аннотация:** В этой статье дается социально-экономическое географическое описание Кызырикского района с описанием населения и хозяйства района, миграции и промышленного потенциала района

**Ключевые слова:** население, национальный состав, миграция, естественный прирост населения, сельское хозяйство, Сельское хозяйство, животноводство, промышленность, социальная сфера.

**Abdimuminov Togoynazar Abdinakhat ugli**

*Teacher at Termez State Pedagogical Institute*

**Kholiyorov Hasanbek Urol ugli**

*Student at Termez State Pedagogical Institute*

## **SOCIO-ECONOMIC GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF THE KYZYRYK DISTRICT**


**Annotation:** this article gives a socio-economic geographical description of the Kyzryk district, provides a description of the population and economy of the district, information about migration and the industrial potential of the district.

**Keywords:** population, National composition, migration, natural population growth, agriculture, farming, livestock, industry, social spheres.

Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganlik darajasini aniqlashda hududning geografik o'rni, xo'jaligi hamda mehnat resurslari, shuningdek respublika va viloyat ma'muriy markaziga nisbatan joylashganligi bilan belgilanadi. Qiziriq tumani Surxondaryo viloyatining tarkibidagi qishloq tumanlaridan biri bo'lib, tumanning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida tabiiy-geografik o'rniغا ko'ra cho'l mintaqasi hisoblanadi.

Qiziriq tumani 1975 yil 6-martda tashkil etilgan. 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra Surxondaryo viloyatida jami 2928012 kishi istiqomat qiladi. Shundan 124 ming kishi yoki viloyat aholisining 4,3% qismi tuman hududida yashaydi. 2023-yilga nisbatan 2024 yilda tuman aholisi 1,6% ga o'sdi. 2022 yil 1-yanvar holatiga ko'ra tuman aholisi 119,9 kishi bo'lib, bir yilda 2600 kishiga ko'paygan . Tuman aholining milliy tarkibida o'zbeklar 95,9 foiz, tojiklar 0,9 foiz, turkmanlar 0,1 foizni hamda 3,1 % ni boshqa millat vakillari tashkil etadi (1-rasm). Mahalla fuqorolar yig'lnari (MFY) soni 31 ta. Qiziriq tumanida 2022-yilning ma'lumotiga ko'ra erkaklar ulushi ayollarga qaraganda 1,6 mingga ko'pdir. Ya'ni erkaklar 58,7 ming bo'lsa ayollar 57,1 ming kishini tashkil etadi.

## Qiziriq tumani aholisining milliy tarkibi



**1-rasm.** Qiziriq tuman aholisining milliy tarkibi. *Manba:* surxonstat.uz

Tuman aholisi tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. *Aholining tabiiy o'sishi bu-o'lim ko'rsatgichidan tug'ulish ko'rsatgichining ortiqligi, ya'ni bir vaqt davomida tug'ilganlar va o'lganlar o'rtasdagи farq bo'lib, aholi soni o'sishining asosini tashkil qiladi.* 2020-yilda tuman hududiga ko'chib kelganlar soni 318 kishini tashkil qilgan. Shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 951 nafarga yetgan. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus (-633) kishini tashkil etgan, 2021-yilning mos davrida migratsiya saldosi (-554) kishi bo'lgan.

Qiziriq tumani aholisining migratsiya jarayoni va uning ta'siri hududning iqtisodiy rivojlanishi, bandlik darajasi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq. Qiziriq tumani aholisi migratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan tendensiyalar asosan mehnat migratsiyasi va ichki ko'chish bilan bog'liq. O'zbekistonning qishloq hududlarida, shu jumladan Qiziriq tumanida ham aholining ayrim qismlari iqtisodiy va ijtimoiy sabablar bilan boshqa hududlarga yoki chet elga ko'chib kegan.

Iqtisodiyotining eng qadimgi tarmoqlardan biri qishloq xo'jaligi bo'lib, u hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rinnarni egallaydi. Qiziriq tumani viloyatdagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tumanlardan biri bo'lib, 1975-yili 17 215 hektar paxtazordan 39 900 tonna o'rniga 43 478 tonna paxta yig'ishtirilib olingan. Keyingi yillarda ham dalalarda

hosildorlik yuqori bo‘lganligi bois ayrim mavsumlarda, tuman dalalaridan 62 000 tonnadan ko‘proq xomashyo jamg‘arilgani haqida ma’lumotlar mavjud. O’sha davrda va undan keyingi davrlarda birgina Lelin nomli (hozirgi Gilombob) savxozda 22000 tonna paxta yetishtirgan. 1982-yili tumanda 16 240 hektar maydonga paxta ekilib, rejadagi 55807 tonna o‘rniga 69 760 tonna paxta davlatga sotilgani qayd qilingan. O’sha mavsum tumanda paxta tayyorlash rejasi 125 foizga, yana 14-oktyabrdan bajarilgan.

So‘nggi yillarda tuman qishloq xo‘jaligi paxtachilik bilan g‘allachilik ham oqsamoqda. 2020-yilda 5 979 hektar maydonga chigit qadalib dehqonlar 18 642 tonna o‘rniga dalalardan 8 000 tonna paxta yetishtirib oldilar. Hosildorlik tuman bo‘yicha 13,04 sentnerni tashkil qildi. Qiziriqlik fermer dehqonlar nafaqat paxta yetishtirishda shu bilan birga g‘allachilikda ham oqsamoqda. 2020-yilda viloyat g‘allakorlari uchun omadli yil bo‘lgan. Ammo, g‘alla mo‘l bo‘lgan yilda ham Qiziriq tumanida davlat buyurtmasi bazo‘r bajarilgan. 11 955 hektar maydonda boshoqli donli ekinlari parvarishlagan fermar xo‘jaliklari belgilangan 81 686 tonna o‘rniga 59 702 tonna don yetishtrilgan. 293 ta fermer xo‘jaligining 61 tasi don tayyorlash rejasini bajara olmagan. Bunga asosiy sabab, yerlar unumdorligining sezilarli darajada pasayib ketganligi hamda sho’rlanish miqdorining yuqori ekanlidir.

Qiziriq tumanida dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish, aholining bandligini ta’minlash maqsadida 2021-yil boshida “Surxon cotton textel cluster” MCHJ paxtachilik va to‘qimachilik klasteri tashkil etildi. Tuman hokimligidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yil oxirida 435 ta fermer xo‘jalik yerlari klaster tasarrufiga o‘tkazilgan. Tumanning jami qishloq xo‘jaligida foydalilaniladigan yerlar umumiy maydoni bugungi kunda 23 588 hektarni tashkil etmoqda.

Qiziriq tumanida qishloq xo‘jaligi ekinlar ekilgan maydon jami gettarga yillar hisobi bo‘yicha taqsimlaydigan bo‘lsak, 2021-yilda 24 522 hektar va 2022-yilga kelib maydon 22 401 hektarga qisqarganligini ko‘rishimiz mumkin. Uch yillik

hisobi bo'yicha 2021 -yilda ekin maydoni qolgan yilga qaraganda maydoni kattaligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi hajmi 2022-yilning birinchi yarmida 509,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Qiziriq tumani jami qishloq xo'jaligida foydalanadigan ekin maydonini 100 foiz deb olinsa, shu maydonlarning 60 foizi bug'doy, 29 foizi paxta, 2 foizi kartoshka, sabzavot ekinlari 4 foizi, 2 foizi poliz ekinlari, yem hashak ekinlari 2 foiz va boshqa ekinlar 1 foizini tashkil etadi. Bu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, tuman qishloq xo'jaligining asosiy ekinlari bug'doy va paxta ekinlari tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi yerlari bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun, muntazam ravishda foydalaniladigan yer maydonlari. Qishloq xo'jaligi yerlariga tarkibi foydalaniladigan va bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtazorlar, pichanzorlar va yaylovlardan kiradi. Qishloq xo'jaligi yerlarida qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar: dehqon va aholining shaxsiy xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari foydalanishida, ijara, doimiy yoki vaqtinchalik mulk sifatida bo'ladi.

Qiziriq tumani transport tizimi hozirgi kunda asosan avtomobil yo'llariga tayanadi. Tuman ichidagi yo'llar va infratuzilma yangilanmoqda, 2021-2023-yillarda 14,2 km davlat ahamiyatidagi va 9 km mahalliy ahamiyatidagi yo'llarni ta'mirlash rejallashtirilgan. Shuningdek, jamoat transporti orqali Termiz shahri va atrofdagi tumandagi yo'nalishlar rivojlantirilmoqda. Transport tizimining samaradorligini oshirish maqsadida logistik markazlar va yuk terminallari faoliyatini takomillashtirish ustida ish olib borilmoqda. Bu, aholi uchun transport qulayligini oshirishga yordam beradi.

Qiziriq tumanida 2021-yil 1-iyun holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari jami 185 tani, 2022-yil 222 tani tashkil etdi. Shundan yirik korxonalar yo'q, 211 ta kichik korxona va mikro firmalar shu jumladan 9 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar mavjud.

Tumanning sog'liqni saqlash tizimidagi davolanish profilaktika muassasalarining aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat haqida ma'lumotlarga

ko'ra, bugungi kunda tuman aholisiga jami 10 ta birlamchi tibbiy sanitariya yordamini ko'rsatuvchi muassasalar, jumladan, 5 ta oilaviy polikilinika, 4 ta oilaviy shifokorlik punkti, 1 ta ko'p tarmoqli markaziy polikilinika va 1ta 283 o'rinali markaziy shifoxona tuman aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda. Sariq zonada-ahvoli o'rta darajadagi bemorlar qabul qilinadi. Qizil zonada-shok holatida kelgan bemorlarga mo'ljallangan bo'lib, ularga barcha reanimatsion yordam ko'rsatiladi. 2021 yilda 3-ta xususiy klinika yangidan ochilgan bo'lib, bularning soni 2022-yilda 8 taga yetdi.

Qiziriq tumanida 50 ta umumta'lim va 101 ta mактабгача та'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Tuman maktab va mактабгача та'lim bo'limiga qarashli 49 ta umumta'lim va 1 tamaktab internati bo'lib ularda 21603 ta o'quvchi ta'lim olmoqda va ularga 1947 ta o'qituvchi ta'lim bermoqda. Bulardan tashqari tumanda 12-sonli Bolalar musiqa va sa'nat maktabi bo'lib, 1978-yil tashkil etilgan. 2014-yil yangi 150 o'rinali binoga ko'chib o'tgan. Bugungi kunda 30 nafar o'qituvchi faoliyat olib bormoqda. Hozirda o'quvchilar 12 yo'nalishda 172 nafar taxsil olmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Qiziriq tuman pasporti-2024.
- 2.surxonstat.uz
3. Abdimo'Minov T.A., & Abduxoliquova M.A. (2022). SAMARQAND VILOYATI AHOLISI JOYLASHUVINING HUDUDIY JIHATLARI. Экономика и социум, (12-1 (103)), 4-8.
4. Abdimo'Minov T.A., & Muhammadova S.Yo. (2022). AMU-BUXORO VA AMU-QORAKO'L KANALLARI SUVLARIDAN BUXORO VILOYATIDA SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (12-1 (103)), 9-13.
5. Abdimo'Minov T.A., & Xoliyorov H.O. (2024). VAXSHIVOR HUDUDIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Экономика и социум, (5-2 (120)), 12-14.

- 6.Abdimo‘Minov T.A., & Xoliqov X.I. (2024). O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI. Экономика и социум, (5-2 (120)), 6-11.
- 7.Abdimominov T.A., Hamrayeva D.Kh., & Eshboyev A.Kh. (2023). ISSUES OF USING AFGHANI WIND IN SURKHANDARYA REGION. Экономика и социум, (3-1 (106)), 7-13.